Agrokibernetika (agroinformatik) – qishloq xo‘jaligi sohasida zamonaviy axborot texnologiyalari, avtomatlashtirish tizimlari, ma‘lumotlarni tahlil qilish va sun‘iy intellektdan foydalanish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis.

GMO agronomi – ekinlarning genlarini o‘zgartirish bilan shug‘illanadigan mutaxassis.

3D-mahsulotni chop etish bo‘yicha muhandis – uskuna, dasturiy ta‘minot va 3D modellarni yaratuvchi mutaxassis.

Qishloq xo‘jaligi ekologi – chiqindilarni bartaraf etish usullarini ishlab chiquvchi mutaxassis. Shuningdek, tuproqni qayta tiklash bilan ham shug‘ullanadi.

² “Jobs of Tomorrow” hisoboti – <https://www.weforum.org/publications/jobs-of-tomorrow-large-language-models-and-jobs/>

Raqamli asalarichi – asalarilarning salomatligi, changlatish jarayonlari, uyalarni loyihalash va turli hududlardagi o‘simliklarga ari to‘dalarni moslashtirish bo‘yicha mutaxassis.

Qurilish sohasi: Yaqin kelajakda arxitektorlar binolarning energiya iste‘molida shamol, quyosh va yer osti suvlaridan unumli foydalanishga harakat qilishadi.

BIM (Building Information Modeling) loyihalovchi – bu bino ma‘lumot modeli uchun vizual qismni yaratuvchi mutaxassis: barcha hujjatlarni jamlaydi, chizmalarni 3D ga aylantiradi va har bir blokni batafsil ma‘lumot bilan to‘ldiradi.

“Aqlli uy” infratuzilmasi dizayneri – uyni intellektual boshqarish tizimini loyihalash, o‘rnatish va sozlash bo‘yicha mutaxassis.

Eski qurilish konstruksiyalarini rekonstruksiya qilish va mustahkamlash bo‘yicha mutaxassis – qurilish tashkilotida ishlovchi hamda yangi materiallar va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda turli binolarni restavratsiya qilish va obodonlashtirish bilan shug‘ullanuvchi shaxs hisoblanadi.

Qurilishdagi 3D bosma dizayneri – 3D qurilish printerlari yordamida binolarni yaratuvchi me‘mor. U materiallarni tanlaydi, mijozning ehtiyojlari, qurilish obyekti joylashuvi va iqlimini hisobga olgan holda kelajakdagi uylarning shakllarini ishlab chiqadi. Mutaxassis loyihani dasturda modellashtiradi, so‘ngra mashinalar uni to‘liq hajmda chop etadi.

“Yashil shahar”lar arxitektori – ekologik talablarni, barqaror rivojlanish tamoyillarini hisobga olgan holda binolar, mahallalar va butun shaharlarni loyihalash bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis³.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, yaqin kelajakda ya‘ni raqamli dunyoda, raqamli jamiyatda yoshlar bandligini ta‘minlash bugungi kunimizdanda dolzarbroq vazifani kasb etadi.

Shu maqsadda, **Yoshlar ishlari agentligi tashabbusiga asosan keyingi “UstozAI” loyihasi** orqali yaqin kelajak 20-30 yillikda dolzarb bo‘ladigan zamovaniy kasblarni o‘qitish mexanizmi yo‘lga qo‘yildi. Bunda, mazkur platforma orqali Marketing, PR, Sotv operatorlik, Logistika, Turizm, SMM, ACCA, SAT, Grafik dizayn, Videomontaj, Animatsiya kabi yo‘nalishlardagi darslar onlayn shaklda bepul o‘rgatilmoqda. 2024 yilda 250 ming nafar yoshlar o‘qitiladi.

Shuningdek, “Ibrat Farzandlari” loyihasi orqali xorijiy tillarni bepul o‘rganish imkoniyatini beruvchi “Ibrat academy” mobil ilovasi joriy etilib, hozirgi kunda 20dan ortiq tillarni o‘rganish imkoniyati mavjud. Bugungi kunda mazkur platforma orqali **1,3 mln nafar yoshlar** xorijiy tillarni mustaqil o‘rganishmoqda.

³ “Yoshlar ovozi” gazetasi “Yaqin 30 yilda bizni qanday kasblar kutmoqda?” 15.05.2024., #18(16620)-sonida

“Ibrat academy” mobil ilovasi orqali Xorijiy tillari mustaqil o’rganayotgan yoshlar to’g’risida statistik ko’rsatkichlari ⁴



№	Hudud nomi	Foydalanuvchilar	O’quvchilari	Sertifikatlar
1.	Toshkent viloyati	167 195	158 750	21 377
2.	Buxoro viloyati	134 083	129 642	19 336
3.	Sirdaryo viloyati	121 742	114 683	16 837
4.	Qoraqalpog’iston Respublikasi	72 945	71 754	15 384
5.	Navoiy viloyati	67 787	65 465	4 477
6.	Jizzax viloyati	52 875	49 965	3 983
7.	Andijon viloyati	81 235	78 139	3 430
8.	Qashqadaryo viloyati	106 025	99 675	2 468
9.	Xorazm viloyati	64 784	61 876	2 819
10.	Namangan viloyati	66 250	63 552	2 491
11.	Samarqand viloyati	81 384	78 945	2 035
12.	Surxondaryo viloyati	52 138	47 259	858
13.	Toshkent shahri	69 522	67 403	839
14.	Farg’ona viloyati	68 615	66 300	662
15.	Hudud belgilanmagan	144 764	73 024	362
Jami		1 351 344	1 226 432	97 358

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 209-sonli qaroriga muvofiq, Xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha yuqori ball (daraja) to‘plagan yoshlarga imtihon topshirish xarajatlarini to‘liq qoplab berish tizimi joriy etildi.

Imtihon turi	Yoshlar soni	Ajratilgan mablag‘
IELTS	20 254	40 mlrd so‘m
TOEFL / TPKM	5 545	6,8 mlrd so‘m
SAT	2 223	2,6 mlrd so‘m
TOPIK	246	66 mln so‘m
GMAT	50	138 mln so‘m
TOEFL	109	238 mln so‘m
HSK	44	74 mln so‘m
JLPT	35	10,5 mln so‘m
GRE	21	48,5 mln so‘m
TestDaF	25	32,2 mln so‘m
TYS	100	74,7 mln so‘m
CAE CPE BEC	10	21 mln so‘m
GOETHE-ZERTIFIKAT	22	33 mln so‘m
DAF	13	13 mln so‘m
ACTFL	2	1,6 mln so‘m
JAMI:	28 699 nafar	50,9 mlrd so‘m

Xorijiy til sertifikatlari
KOMPENSATSIYASI

YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI
Ma’lumotlar: 2024-yil 1-aprel holatiga



Xorijiy tillar bo'yicha yuqori natijaga (70% dan baland) erishgan yoshlarga 50 mlrd so'mdan ortiq to'lov qoplab berildi

O'tgan 2021-2024-yillar tahlil qilinganda, 15 ta xalqaro til sertifikatlariga ega bo'lgan **28 ming 699 nafar** yoshlarning xarajatlarini qoplab berish uchun **50,9 mlrd so'm** mablag' ajratildi. Mazkur imtiyoz orqali, xorijiy tillarni o'rganayotgan yoshlar soni har yili **ikki baravarga oshish tendensiyasini** kuzatishimiz mumkin.

⁴ <https://ibrat-statistics.pages.dev/> - “Ibrat academy” mobil ilovasi orqali Xorijiy tillari mustaqil o’rganayotgan yoshlar to’g’risida statistik ko’rsatkichlar portali

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-27-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2023 yil “Davlat dasturi”ga muvofiq **“ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish” amaliyoti** joriy etildi⁵. Bunda, asosiy e‘tibor zamonaviy kasblar orqali yoshlar bandligini ta‘minlash masalasiga qaratildi.

Natijada, inson kapitaliga ehtiyoj kundan-kunga ortib borayotgan bir davrda zamonaviy kasblarga o‘qitish, qayta tayyorlash masalasi dunyo miqyosida global ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur islohotlarning mantiqiy davomi sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23 fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” farmoniga muvofiq, “Har bir mahalladan ikki nafar dasturchi” dasturiga start berildi⁶. Hududlarda yoshlarni raqamli texnologiyalar va xorijiy tillarga o‘qitishga yo‘naltirilgan **“IT-shaharcha”larni tashkil etish** chora-tadbirlari belgilan olindi.

Barpo etiladigan “IT-shaharcha”larning asosiy faoliyat yo‘nalishlari:

– yoshlarni raqamli texnologiyalar sohasiga yo‘naltirish, ularning mazkur sohada bilim egallash bo‘yicha intilishlarini rag‘batlantirish;

– seminarlar, mentorlik dasturlari va onlayn ta‘lim resurslari orqali yoshlarda ularning mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi raqamli texnologiyalar sohasidagi ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish;

– dasturlash va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishlarida ta‘lim berish, xorijiy tillar, shu jumladan ingliz tiliga o‘qitish orqali yoshlarning bilim va salohiyatini oshirish;

– yosh avlodni zamonaviy kasblarga o‘qitish, shuningdek, ularda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini oshirishdan iboratdir.

Raqamli iqtisodiyot rivojlanib borayotgan sharoitda yoshlar bandligini ta‘minlash borasida mazkur onlayn bepul o‘qitish mexanizmi orqali 10-30% tashqi mehnat migratsiyasini diversifikatsiya qilishga erishiladi.

Shu o‘rinda xulosa sifatida aytishimiz mumkin, asosiy maqsad – Raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar rivojlanib borayotgan jamiyatda yoshlar bandligini ta‘minlash barcha davrlardanda muhimroq, dolzarbroq ahamiyat kasb etib borayveradi.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.03.2024y.dagi PF-27-sonli farmoni

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.02.2024y.dagi PF-37-sonli farmoni

“FIZIKA FANINING BUGUNGI KUNDAGI RIVOJLANISHI VA FIZIKA FANINING HAYOYGA AMALIY TADBIQI”

Муминова Арофат

Дусткобилова Дилноза

*Тошкент Давлат Транспорт Университети
Академик лицейи физика фани уқитувчилари*

Аннотация: Мақоллада физика fanining jamiyat rivoji va insonning ma'naviy rivojidadagi ahamiyati masalalari atroflicha ko'rsatilib berilgan. O'rta Osiyolik allomalarning tabiiy fanlar rivojiga qo'shgan hissalarini haqida co'z yuritildi. Jizzax davlat pedagogika institutida fizika sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida fikr yuritilgan.

Калит со'злар: tabiat, jamiyat, inson, kosmos, yadro, zarralar, fan, texnika, taraqqiyot.

Biz yashab turgan, hayot kechirayotgan gallaktikamiz (Quyosh va uni atrofida aylanayotgan to'qqizta planeta va yulduzlar sistemasi) juda ko'p asrlardan beri mavjud. Yerimiz, tabiatimiz, yetti osmonimiz gallaktikaning bir bo'lagi bo'lib, tirik organizmlar va odamzod maskani sifatida paydo bo'ldi. Tabiat hodisalarini, jarayonlarini va qonunlarini o'rganish juda qadimdan boshlangan. Tabiat sirlarini o'rganish, qonunlarini ochish asosida insoniyat o'zining turmush sharoitini, yashash imkoniyatlarini yaxshilab bordi. Tabiat sirlarini o'rganish o'z navbatida, o'z zamonidagi fikrli, mulohazali, ilg'or kishilarni o'ziga tortdi. Qadimgi Yunonistonda tabiat hodisalarini o'rganuvchi tabiatshunoslik fani vujudga keldi.

Bir necha asrlar davomida aniq va tabiiy fanlar dunyo va O'zbekiston zaminida keng rivojlanib, O'rta Osiyo hududi butun jahon intellektual markazi bo'lib kelgan. Yurtimiz hududida yuzaga kelgan birinchi va ikkinchi Renessans davri butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Ali ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Qozizoda Rumi, Jamshid Koshiy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi va Sharqning boshqa olimlari ilmiy tadqiqotlari jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shdi. Buyuk ajdodlarimizning ilmiy an'alarini munosib davom ettirgan holda, XX asrning 40- yillaridan boshlab O'zbekistonda fizika fanini rivojlantirish jarayonida nufuzli ilmiy maktablar tashkil etildi, ularning vakillari xalqaro mukofotlarga sazovor bo'ldi va xorijiy akademiyalar a'zolari bo'lib saylandi. Eng muhim ilmiy yo'nalishlarni shakllantirishda Fanlar akademiyasining taniqli ilmiy maktablar yaratgan atoqli fiziklari muhim o'rin tutdi.

Mamlakatimizning XXI asrdagi muvaffaqiyati, tabiat resurslaridan samarali foydalanish, ekologik muammolarni yechish, kosmosni o'zlashtirish, mudofaa salohiyati, texnika va energetikaning rivojlanishi, fan manbalari uchun materiallar hamda zamonaviy texnologiyalarni yaratish kabi barcha yo'nalishlar fizika fani va fizika ta'limi darajasiga bog'liq. Fizika fanini o'rganish, uning qonunlarini bilish kelajakni oldindan bilishgina emas, balki o'tmishda bo'lib o'tgan tabiat hodisalarining sabablarini ochib berishga ham imkon beradi.

Fizika – hozirgi zamon tabiiy bilimlarini va dunyo texnologik xolatining tayanch fanidir. Tabiat haqidagi fanlar ichida texnika taraqqiyoti uchun fizika eng katta ahamiyatga ega.

Fizika va texnikaning rivojlanishi o'zaro chambarchas bog'liq. Negaki, fizik kashfiyotlar texnikaning rivojida muhim ahamiyatga ega, yana bir tomondan texnika taraqqiyoti fizikaning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Hozirgi zamon texnikasining yaratilishi, zamonaviy texnologik mashinalarning ishlash prinsipi, fizika fani qonunlariga asoslanib oldindan loyihalashtirilgan. Fizika fani barcha tabiiy fanlarning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan tadqiqot uslublarini ishlab chiqadi va zarur asboblarni yaratishga imkon beradi. Masalan, hozirgi vaqtda yadroviy tadqiqotlarni zamonaviy texnika qurilmalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yadroviy reaktorlarda yoki zaryadlangan zarralar tezlatgichlarda bajariladigan eng muhim jarayonlarni ko'rishimiz mumkin. Tabiiy va ko'plab texnik fanlarning asoslari fizikadir. Ayni paytda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot jadal rivojlanmoqda. Boshqa fanlar qatori fizika fani ham uzluksiz rivojlanib boradi, fizikaga tugallangan fan sifatida qarab bo'lmaydi, fizik qonuniyatlar rivojlanish jarayonida yanada takomillashib boradi.

Yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda tabiiy fanlarni, ayniqsa fizikaning, jamiyat rivojlanishidagi o'rnini va ahamiyati juda katta. Jamiyatning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, Respublika mustaqilligi va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish - zamon talablariga javob beradigan, malakali, har tamonlama bilimga, zamonaviy ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan raqobatbardoshli mutaxassislarni tayyorlash va mazkur jarayon samaradorligini ta'minlash uzluksiz ta'lim mazmunini takomillashtirishni taqazo etmoqda.

Hozirgi XX asr fizika -texnologiyasi asri ekanligi hech kimga sir emas albatta. Zamon kun sayin rivojlanib bormoqda, bundan ko'rinadiki fizika hayotimizni har bir javhasiga asta-sekin kirib kelmoqda. Lekin hozirgi zamon yoshlarning hammasi ham fizika hayotimiz asosini tashkil qilishini tushunib yeta olmaydi. Fizikani faqat formulalardan iborat fan sifatida qabul qilishadi, bu bizning og'riqli nuqtalarimizdan biridir.

Aytganimizdek, fizika har bir sohaga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Masalan, tibbiyot sohasini olaylik, bu sohada insonni jismoniy holatini tahlil qilish hamda shu natijalar orqali to'g'ri tashxis qo'yish muhim ahamiyatga ega. Bunda

tibbiyot xodimlari tekshiruv asboblariga, masalan, EKG, EMRT, UZI, Rentgen qurilmalari va boshqa shu kabi asboblarga tayanadilar. Bu asboblarning ishlash prinsipi asosida esa albatta fizika yotadi.

Nega endi bizlardan Nobel mukofoti namoyondalari chiqmasligi kerak. Axir hozirgi zamon yoshlaridagi imkoniyatlar bir paytlar orzu edi. Biz shunday ta'lim tizimini tashkil qilishimiz kerakki, o'quvchilarning o'zlari fizika sohasini sevib, shu sohada o'z kelajagini ko'rishi zarur.

“Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, dunyodagi deyarli barcha kashfiyot va texnologiyalarni yaratishda fizika fani fundamental asos bo'lganini ko'ramiz. Haqiqatan ham, fizika qonuniyatlarini chuqur egallamasdan turib, mashinasozlik, elektrotexnika, IT, suv va energiyani tejaydigan texnologiyalar kabi bugun zamon talab qilayotgan sohalarda natijaga erishib bo'lmaydi. Shu maqsadda ushbu o'quv yilda ta'limning barcha bo'g'inlarida ushbu fanlarni o'qitish sifatini tubdan oshirish, ixtisoslashgan maktablar ochish, malakali pedagoglarni jalb etish kabi tizimli ishlar amalga oshiriladi. Fizika bo'yicha Ahmad Farg'oniy nomidagi xalqaro fan olimpiadasi tashkil etiladi. Shuningdek, fizika yo'nalishida ilmiy izlanishlar ko'lami va sifatini oshirish, yosh olimlarga zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.”

Fizikadan davr talablariga mos ravishdagi bilimlarga ega bo'lmasdan Vatanimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddatli maqsadi va vazifalarini yechishda erishib bo'lmaydi. Mamlakatimizning rivojlanishi va hozirgi davrda texnologik jadal taraqqiyotga erishishda fizika ta'limi va fizikaning fan sifatida rivojlanishiga mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanishga asosiy e'tibor qaratilishi lozim.

Yuqoridagi fikrlardan fizika fanini o'rganish davr talabi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu ishlarni amalga oshirish uchun 19.03.2021 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ5032-son qarori qabul qilindi va 2021–2023 yillarda Fizika fanlari bo'yicha ta'lim sifatini oshirish va fizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning natijadorligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi: maktablarda fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini takomillashtirish; fizika fani bo'yicha kadrlarni, xususan, qishloq joylardagi maktablarning o'qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish; ta'lim jarayoniga axborot – kommunikatsiya texnologiyalarni keng joriy qilish; yangi va ta'lim bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish orqali yoshlarning fizika ta'limi bilan qamrab olish darajasini oshirish; fizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash.

Yuqorida keltirilgan qaror asosida ishlab chiqilgan chora tadbirlari dasturi ayni paytda yurtimizda ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini olib kirish kuchli mutaxassislarini tayyorlash, fizika faniga qiziqishni ta'minlash uchun umumiy o'rta ta'lim maktablari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish hamda sohadagi mavjud muammolarning yechimini topishga qaratilgan.

Fizik kattaliklarni o'lchash uchun o'lchov birliklari tanlab olinadi. O'lchash mumkin bo'lgan fizik kattaliklarning birliklari etalon (namuna) larga ega. Fizik kattaliklarning qiymati deganda, mazkur kattalik etalondan (eski uning nusxasidan) necha marta farqlanishini ko'rsatadigan son tushuniladi. Har bir fizik kattalik o'lchov birligini boshqa fizik kattaliklarga bog'liq bo'lmagan holda mustaqil tanlash mumkin.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o'quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo'naltirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. К.А.Турсунметов., Ф.Султонова «Тарози тошларининг яратилиш тарихи». Фан ва жамият журнали 2022.
2. К.А.Турсунметов., Ф.Султонова Физика фанининг шаклланишида Осиё алломаларининг ўрни. Наманган муҳандислик технология институти ФИЗИКА-2022 Форум 3 октябрь 2022 йил
3. Ф.Султонова. Шиша ва унинг яратилиш тарихи. АндМИ Ҳалқаро конференция 2022 йил октябрь.
4. Насиров И.З., Гаффаров М.Т. Присоединение Республики Узбекистан к Киотской конвенции // Процветание науки. 2021. №2 (2). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/prisoedinenie-respubliki-uzbekistan-k-kiotskojkonventsii> (дата обращения: 22.02.2023).
5. Насиров И.З., Гаффаров М.Т. Присоединение Республики Узбекистан к Киотской конвенции // Процветание науки. 2021. №2 (2). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/prisoedinenie-respubliki-uzbekistan-k-kiotskojkonventsii> (дата обращения: 22.02.2023).
6. MUMINOVICH, S. A., & ZAKIROVICH, N. I. (2022). PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF MULTIMODAL TRANSPORTATION TECHNOLOGY. Saybold Report (TSRJ): Saybold Publications, Box, 644(428).

BOLALARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIDA JISMONIY MASHQLARNING PSIXOLOGIK O'RNI

Niyozbekova Nigora Nosirovna

Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani MMTB tasarrufidagi

16-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Hozirgi vaqtda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar soni ortib borayotgani hech kimga sir emas. Ayniqsa, ushbu moyillik ommaviy bog'cha yoshidagi bolalar, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida namoyon bo'lib kelmoqda. Ko'pchilik bolalar maktab ta'limida ayrim muammolarga duch keladilar, asosiy muammolar esa bilimlarni o'zlashtirish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: ko'nikma, bilim, saviya, moyillik, o'zlashtirish, konsultatsiya

KIRISH

Umumta'lim maktablarida ishlash jarayonida samarali korreksion metodlarning yo'qligi o'qish bilan bog'liq muammolarning ko'payib boryatganligi va o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar sonining ortishiga olib kelmoqda. Ushbu muammolarning kelib chiqishi natijasida turli rehabilitatsion va konsultatsion markazlarning sonini ortishiga turtki bo'lmoqda.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha hozirga qadar hammaga ma'qul bo'lgan an'anaviy pedagogik-psixologik metodlar o'qishda va korreksion ishlarda o'z kutgan natijalarini bermayotganligi tufayli yangi metodlarni izlash zarurati paydo bo'ldi. Ushbu avj olib borayotgan muammolarni tezroq oldini olish va samarali bartaraf etish masalasi bugungi kunning eng dolzarb muammosi bo'lib qoldi.

O'qishdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq muammolarga kimlar duch kelmoqda? Ular umumiy maktablarda bilim olib kelayotgan oddiy sinf o'quvchilari. Ular ko'pincha bir yoki bir necha fandan (asosan og'zaki) yaxshi natijalarga ega bo'lishga harakat qiladi. Lekin yozish, o'qish va matematika borasida sezilarli darajada muammo va qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Oxirgi yillarda ko'pgina pedagogik, psixologik tadqiqotlar aynan ta'limdagi qiyinchiliklarning kelib chiqishi va uni bartaraf etish sabablari va mexanizmlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lmoqda. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatib turibdiki bolalarning oliy psixik funksiyalarning parsial ya'ni qisman rivojlanishida ortda qolishi bilan bog'liq sabablarga borib taqaladi. Ushbu muammolarni ishonchli va samarali aniqlashda neyropsixologiya, neyropedagogika alohida ahamiyat kasb etadi.

A.R. Luriya va uning izdoshlari tomonidan olib borilgan ishlar natijasida oliy psixik funksiyalarning tuzilishi va uning lokalizatsiyasi faoliyati

natijasida o'qish va yozishni amalga oshirilishi uchun miyaning dasturlash, ixtiyoriy boshqarish (III-blok, miyaning peshana qismi) hamda axborotni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash qismi (II-blok miyaning ensa qismi) hamkorligida amalga oshirilishi taqiqotlar natijasida aniqlangan. Bunda miyaning energetik ya'ni miyaning quvvatini ta'minlovchi qismi (I-blok miyaning ustun (stvol qismi)ning ham ahamiyati katta hisoblanadi.

A.R. Luriya o'z nazariyasida inson miyasini murakkab bir tuzilishga egaligi va u uch blokdan (zonadan) iborat bo'lib, har bir blok har xil yosh davrlarida va bosqichlarida shakllanishini ta'kidlab o'tgan. Ular quyidagicha o'rganiladi: I-blok, energetik yoki miyaning quvvati bloki hisoblanadi. Ushbu miyaning qismi bola ona qornidan boshlab bola 2-3 yoshga to'lgunga qadar shakllanib, o'zida retikulyatsion formatsiya va organizmning yoki biror a'zoning hayotiy faollik darajasi hamda tetiklikligi uchun javob beradi.

II-blok, axborotni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash bloki uch yoshdan boshlab 7-8 yoshlarni o'z ichiga oladi. Ushbu qismga miyaning ikki yon chakka, bosh orqa yuqori va bosh orqa zonalarini o'z qamroviga oladi. Ushbu miya qismi psixik faoliyatning operatsion-texnik jihatdan ta'minlash uchun xizmat qiladi.

III-blok, dasturlash, ixtiyoriy boshqarish va nazorat bloki 7-8 yoshdan boshlab 12-15 yoshgacha shakllanib, boshning peshana zonasini o'z ichiga olib, umumiy qilib aytganda inson xulq-atvori va xatti-harakati muvofiqligi uchun javob beradi. Ushbu blokning to'liq yetilish davri to 20-21 yoshgacha davom etadi.

Yuqoridagi ma'lumotlar bizga yozish, o'qish, matematik vazifalar, og'zaki nutq va uni tushunish kabi vaziyatlar oliy psixik funksiyalar ya'ni, murakkab funksional tizim bosh miya va uning funksional komponentlariga tayangan holda o'z faoliyatini amalga oshishi haqida ma'lumot beradi. Fonematik eshitish qobiliyati, tovushlarni ajrata olish, og'zaki nutq, yozuv va o'qishni o'zlashtirish, ko'rishga oid analiz funksiyasi harf, so'zlarni tanish, ularni esda saqlash va matnni o'qishda muhim o'rin egallaydi.

Har bir bolaning psixik rivojlanishi genetik individual tarzda shakllanib, ularning psixik funksiyalarining rivojlanishi uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, bir funktsiya oldinroq boshqalari esa keyinroq shakllanishini hech kimga sir emas. Shu bois bir bolada ko'rishga, eshitishga oid o'zlashtirish boshqasida esa muhitni tasavvur qilish imkoniyatlari shakllangan bo'lib, har bir bolaning faoliyati, harakati hamda intilishi bir-biriga o'xshamaydi va bularning ba'zilar oldinroq ba'zilar esa keyinroq rivojlanadi. Aynan miyaning ushbu tarkibiy qismi boladagi ustun va zaif tomonlarini kompensatsiya qila olmasligi natijasida ijtimoiy talablarga muvofiq bo'la olmayotgani, qiyinchiliklarga duch kelayotganini bizga aynan qaysi jihatlariga birinchi navbatda e'tiborni qaratishimiz kerakligini bildiradi.

Bu kabi muammolarni oldini olish albatta maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanishi, o'zining ijobiy natijasini beradi. Bunday muammoli bolalarga kuchliroq motivatsiya, emotsional qiziqtirish (o'z kuchi va qobiliyatiga undovchi rag'batlantiruvchi so'zlar) va vazifalarni miqdorlash sezilarli darajada yordam beradi. Hattoki bunday bolalarga faoliyatni o'zgartiruvchi vaziyatlar ham foydali hisoblanadi. Faoliyatni o'zgartiruvchi vaziyatlar jismoniy mashqlar, harakatli o'yinlar orqali amalga oshirilishi ham mumkin.

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni intellektual rivojlantirishda neyropedagogik va neyropsixologik bilimlarning o'rnini beqiyos hisoblanadi. Chunki neyropedagogik, neyropsixologik yondashuv bizga oliy psixik funksiyalarning o'rganib bolalarning kuchli va zaif tomonlarini o'z vaqtida aniqlash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga, guruh yoki individual tarzda korreksion ishlarni samarali tashkil qilish orqali mavjud muammolarni yaxshilashga yordam beradi. Neyrokorreksion mashqlar tizimli ravishda to'g'ri tashkil etilsa, bolaning intellektual rivojlanishida yutuqlarga erishish mumkin.

Neyrokorreksion mashqlarning aksariyat qismi jismoniy mashqlar hamda bolalarning harakatchanlik faolligini oshirishga yo'naltirilgan mashqlardan iboratligiga e'tibor qaratsak, jismoniy tarbiyaning bola intellektini rivojlantirishda samarali vosita ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Ushbu muammoni ijobiy hal etishni ko'plab omillar, jumladan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanishi va maktabgacha yoshdagi bola shaxsini intellektual rivojlantirishda jismoniy tarbiya, jismoniy mashqlarning ahamiyatlilikini ilmiy asoslash zarur.

Tarixiy tajriba zamonaviy maktabgacha ta'lim uchun muhim pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, yosh bolalarning boshlang'ich ta'limi va tarbiyasi haqidagi ko'plab qimmatli pedagogik g'oyalarni o'zida mujassam etgan. Shu sababli, maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy va jismoniy tarbiyasi haqidagi o'tgan yillardagi pedagogik fikrga tayanmasdan, bu mumkin emas. bugungi kunda maktabgacha pedagogika oldida turgan muammolarning muvaffaqiyatli rivojlanishi bo'lishi mumkin.

Hozirgi maktabgacha pedagogikada maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashning mohiyati haqidagi nazariyotchi va amaliyotchilar ega bo'lgan bilimlarning to'liqligi bilan bolaning psixofizik rivojlanishidan xabardorligi o'rtasida bog'liqlik mavjud.

Rivojlanishning tarixiy bosqichlari va qonuniyatlari maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishida jismoniy tarbiyaning o'rnini borasidagi nazariya va amaliyotni chuqur o'rganish, tahlil etish, baholash kelgusidagi vazifalarni belgilash imkonini beradi.

Afina tuzumi davridan (miloddan avvalgi VI-IV asrlar) to hozirgi kungacha fanlar, san'at, jismoniy tarbiya o'rgatish va o'qitish uslublarini rivojlantirish asosida barkamol shaxsni tarbiyalash insoniyat ongida qiziqish uyg'otib kelgan.

Bola hayotining dastlabki kunlaridanoq uni jismoniy tarbiyalashga alohida e'tibor qaratgan davlatlardan biri Sparta (Peloponnesdagi qadimgi yunon siyosati) edi. Sparta jamiyatida davlat jismoniy rivojlanishni nazorat qilgan va aqliy tarbiya har bir spartalik uchun shaxsiy masala edi. Arastuning (miloddan avvalgi 340-yil) fikricha tarbiya inson taraqqiyotining borishiga mos ravishda amalga oshirilishi kerak: birinchidan, tana tarbiyasi, keyin mayl tarbiyasi va nihoyat, aql tarbiyasi. Ya. A. Komenskiy o'zining pedagogik konsepsiyasida maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy, axloqiy va intellektual rivojlanishini yoritgan. U ta'limning keyingi bosqichlari uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan, eng yuqori darajaga qadar bo'lgan ilmiy va amaliy bilimlarning elementlari va asoslarini yaratishda yoshni hisobga olishning dolzarbligini ko'rsatib berdi. Italiyalik pedagog Ramboldoni da Feltre (1378-1446) o'quvchilarning ma'naviy va jismoniy kuchini rivojlantirishda uyg'unlik va faolligini rag'batlantirishga katta ahamiyat bergan.

I. G. Pestalossi (1746-1827) tafakkurni rivojlantirish zarurligi haqida gapirib, bolalarni bilim bilan boyitish orqali ularning aqlini, jismoniy kuchini, axloqiy mayllarini rivojlantirish zarur, deb hisoblaydi. R. Ouen (1771-1858) jismoniy tarbiyani uzluksiz ta'limning asosi sifatida qo'yadi. Uning fikricha, salomatlik, jismoniy barkamollik va aqliy tarbiya insoniyatga chinakam baxt keltiradi. Utopik sotsialist K. Fure (1772-1837) esa mehnat jarayonida aqliy va jismoniy tarbiyani uyg'unlashtirish g'oyasini ta'kidladi. Fransuz publitsisti E. Kabet (1788-1856) jismoniy tarbiyaga katta e'tibor bergan. Jismoniy tarbiya har tomonlama bo'lsa foydali bo'lib, uni aqliy va axloqiy tarbiyadan ajratmaslik kerakligiga ishonch hosil qilgan. Jismoniy faoliyatning insonning shakllanishi va rivojlanishida muhim vosita ekanligi P. F. Lesgaft, I. M. Sechenov kabi olimlar tomonidan ham ta'kidlangan. Ularning ta'kidlashicha, inson jismoniy va aqliy jihatdan birlikda va o'zaro bog'liqlikda rivojlanadi, shuning uchun jismoniy tarbiyani to'g'ri tashkil etilishi yetuk shaxs sifatida shakllanishning omiliga aylanishi mumkin.

P.F.Lesgaft "Maktab o'quvchilari jismoniy tarbiyasi bo'yicha qo'llanma" (1888-1901) nomli ikki jildlik fundamental asarida jismoniy tarbiyaning o'ziga xos tizimini ishlab chiqdi.

Jismoniy tarbiya jarayonining o'ziga kelsak, P.F.Lesgaft uni quyidagi algoritm bo'yicha ko'rsatib o'tgan:

- bola elementar harakatlarni takrorlaydi, ularni bir-biri bilan taqqoslaydi, farqlarni o'rnatadi, tahlil qiladi;

- harakatlar asta-sekin murakkablashadi, bola kattalar rahbarligida qiyinchiliklarni yengib o'tishni o'rganadi;

- bola atrofdagi narsalarni hisobga olgan holda harakat qiladi, natijani oldindan ko‘radi, vaqt va makonda o‘z harakatlarini o‘lchashni o‘rganadi;

- bolalar faoliyatining har xil turlarida murakkab harakatlardan foydalangan holda, bola olingan ko‘nikmalarni tekshiradi va ularni mustahkamlaydi.

Yuqoridagilar bilan bog‘liq holda shuni ta’kidlash joizki, P.F.Lesgaft tomonidan ishlab chiqilgan jismoniy tarbiya nazariyasi aqliy va birlik tamoyiliga asoslanadi; jismoniy tarbiya: aqliy va jismoniy faoliyatning ijodiy faoliyati, P.F.Lesgaftning fikricha, maqsadlarga erishish uchun vositalarni ongli ravishda tanlash bilan mumkin. Ammo, davlat maktabgacha ta’lim g‘oyasini tubdan inkor etmasdan, P.F.Lesgaft Frebel bolalar bog‘chalarida ta’lim va tarbiya amaliyotini keskin tanqid qildi va ulardagi pedagogik jarayon haddan tashqari tartibga solingan va rasmiy deb hisobladi.

P.F.Lesgaft maktabgacha ta’limga katta ahamiyat bergan. Uning fikricha, bu yoshda insonning eng muhim va barqaror fazilatlari shakllanadi: “Bolaning jismoniy tarbiyasi uni o‘z kuchlari va harakatlarining namoyon bo‘lishini o‘zlashtirish va nazorat qilishga o‘rgatish va uni har qanday boshlang‘ich ishga tayyorlashga qaratilgan bo‘lishi kerak. shunday qilib, so‘z bilan yoki yozma ko‘rsatma bo‘yicha, u o‘zi uchun zarur bo‘lgan hamma narsani qila oldi. Jismoniy tarbiya vazifasini, shuningdek, aqliy tarbiyaning vazifasini ham quyidagicha belgilash mumkin: u, albatta, inson harakatlaridagi o‘zboshimchalikni kamaytirishga va uning namoyon bo‘lish mustaqilligini rivojlantirishga yordam berishi kerak. Bola o‘zini shunchalik nazorat qilishni o‘rganishi kerakki, u eng kam energiya sarflab, eng kichik vaqt oralig‘ida eng ko‘p ishni qila oladi. Mavjud gimnastika anjomlarida tasodifiy harakatlar va mashqlar bilan bu maqsadga erishish mumkin emasligi aniq. Bu yerda ham xuddi aqliy tarbiyadagi kabi ketma-ketlik va oxirgi holatda bo‘lgani kabi bir xil pedagogik asoslarga ega bo‘lishi kerak”

P.F.Lesgaft jismoniy tarbiyani shaxsni har tomonlama kamol toptirishning eng muhim vositasi sifatida baholab, uni aqliy, axloqiy va estetik tarbiya bilan chambarchas bog‘liq deb hisoblagan. Uning fikricha, jismoniy mashqlarni o‘rgatishda onglilik tamoyili shaxsning barkamol rivojlanishining zarur sharti bo‘lib, jismoniy harakatlarning mazmunliligi bolaga o‘z kuchidan oqilona foydalanishga yordam beradi

Rus pedagog olimlari orasida I.M.Sechenov birinchi bo‘lib jismoniy tarbiyaga hayotimiz va faoliyatimiz uchun zarur shart sifatida e’tiborni qaratdi va turli psixik hodisalar bilan inson jismoniy harakati va faoliyati o‘rtasida psixomotor deb ataladigan aloqani o‘rnatdi.

Ko‘plab mutaxassislar aqliy va jismoniy tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular maktabning yagona vazifasi bo‘lishi kerak, deb hisoblaydilar. Har qanday bir tomonlama rivojlanish, albatta, ta’limdagi uyg‘unlikni buzadi va yetuk shaxsning rivojlanishi uchun sharoit yaratmaydi, degan g‘oyani ilgari suradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullo Avloniy. Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom. - T.: Fan, 1994. - 293b.
2. Abdullayeva Sh. A. Sportchilarning tarbiyalanganlik darajasini tashxislash metodlari. - Toshkent: Kamalak, 2002. - 134 b.
3. Abdullayeva Sh. A., Axatova D. A., Sayitov S. S. va boshkalar. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. - T.: Fan, 2004. - 198 b.
4. Abdullayev A. Talaba va sport. - Toshkent: Moliya, 2015. - 168 b.

О‘SMIR YOSHIDAGI BOLALAR SHAXSINING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING TA‘SIRI

Kamolova Ferangiz Bahodirovna
Buxoro viloyat Kogon tuman
1-IDUM ning amaliyotchi psixologi



Annotatsiya: Ushbu maqolada, o‘smir yoshdagi bolalar shaxsining etnopsixologik xususiyatlarini shakllantirishda oilaning ta‘siri mavzusida metodik tushunchalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: bola psixologiyasi, tarbiya, metodika, longityud, xissiy jarayon, ma‘rifiy jarayonlar, pedagogika.

Mashhur faylasuf V.Gyugo aytganidek, “oila jamiyatning duru gavharidir”. Shuningdek, “Oila tabiatning shox asarlaridan biridir”. Xuddi shox asar hisoblangan oilani o‘rganish, ilmiy jihatdan tadqiq etib borish bugungi kunning ham eng dolzarb masalalaridan bo‘lib, hozirgi davrda mustaqil O‘zbekistonda bu borada juda katta ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar olib borilmoqda. “Oila” haqida gapirar ekanmiz, avvalom bor, oila hayotning abadiylikini, avlodlarning davomiyligini ta‘minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak avlodlar qanday inson bo‘lib yetishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini deb bilamiz. Har bir oilaning kelajagi va istiqboli, uning mustahkamligiga, sog‘lom turmush tarziga bog‘liqdir. Bu o‘z navbatida xalqning, jamiyatning istiqbolini belgilaydi. Shu tufayli oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslari mamlakat, jamiyat manfaati yo‘lida amalga oshiriladigan eng muhim masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bunda o‘zbek xalqida kelin - kuyovga eskicha nikoh o‘qitish, shuningdek Respublikamizda yashovchi boshqa xalqlar, jumladan, ruslarda cherkovda nikoh o‘qitish, turklarda esa nikoh to‘yidan keyin hurmat belgisi sifatida kelin-kuyovni ma‘lum muddat davomida oila a‘zolari bilan gaplashmay yurishlari singari an‘anaviy udumlar ko‘zda tutilgan. “Oila ham ijtimoiy institut, ham kichik guruh ekanligidan kelib chiqib, unga quyidagicha ta‘rif berish mumkin: oila - bu uyushgan ijtimoiy guruh bo‘lib, uning a‘zolari umumiy hayot, nikoh yoki qarindoshlik munosabatlari bilan, shuningdek, jamiyatning jismoniy ehtiyojlari tufayli ma‘naviy javobgarlik bilan bog‘lanadi”

Oila va uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko‘ra quyidagilarga farqlanadi:

- 1) То'liqligiga ko'ra: to'liq, noto'liq, qayta tuzilgan(2 nikoh) oilalar.
- 2) Bo'g'inlar soniga ko'ra: nuklear (ota-ona va bolalardan iborat) va ko'p nomli(ikki va undan ortiq avloddan iborat oila a'zolari birga yashovchi) oila.
- 3) Bolalar soniga ko'ra: farzandiz, bir bolali, ikki bolali, uch- to'rt bolali, besh va undan ortiq bolali oila. Masalan: AQSH, Fransiya,Germaniya, Gretsiya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda to'rt bolali oilalar ko'p bolali oilalar hisoblanadi. O'zbekistonda bunday oilalar, farzandlar soni o'rtacha bo'lgan oilalar sirasiga kiradi.
- 4) Er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra: ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, ziyolilar, aralash tipdagi oilalar kiradi.
- 5) Oilaning yoshiga ko'ra: yosh oila (1 yilgacha, 3-5 yillik, 6-10 yillik turmush tajribasiga ega bo'lgan oilalar), o'rta yishdagi oila, yetuk yoshdagi oila (qariyalar oilasi) kabi oilalar.
- 6) Er-xotinning ma'lumot saviyasiga ko'ra: oliy ma'lumotli, o'rta maxsus, o'rta, tugatilmagan o'rta, maxsus yordamchi maktab malumotiga va turli saviyadagi ma'lumotlarga ega bo'lgan er-xotinlardan tashkil topgan oila.
- 7) Er-xotinning ota onasi, oilasining moddiy ta'minlanganlik darajasiga ko'ra:
qudalarning bir-biriga mos yoki ular orasida katta tafovut mavjudligi bo'yicha birbiriga mos bo'lmagan oilalar.
- 8) Regional jihatlariga ko'ra: shahar, qishloq, aralash tipdagi oilalar.
- 9) Nikohdan qoniqqanlik saviyasiga ko'ra: ajralish saviyasida, nikohdan qoniqqanlik darajasi, quyi darajali, o'rta darajali oilalar.
- 10) Oilada er-xotin orasidagi munosabatlariga ko'ra: avtoritar, demokratik, liberal aralash tipdagi oilalar.
- 11) Er-xotinning millatiga ko'ra: bir millatli, baynalmilal oilalar. Baynalmilal oilalarni o'z navbatida 2 bo'lish mumkin;
* dini, urf odatlari,tili, bir guruhga kirgan millat vakillari orasida nikohlar masalan; o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-turkman, rus-ukrain va h.k.
* dini, urf odatlari, tili bir guruhga mansub bo'lmagan millat vakillarining o'rtasidagi nikohlar, masalan; o'zbek-rus, o'zbek-ukrain, o'zbek-estoniya, o'zbeknemis va h.k.
- 12) Yuridik rasmiylashtirilganligiga ko'ra: sinovdagi oila (birga yashashadi ammo hali nikohni rasmiylashtirmagan, chunki bir birlarini norasmiy nikohda deb bilishyapti), rasmiylashtirish arsfasidagi oila (birga yashashadi, oila qurish maqsadi aniq, ammo ayrim obyektiv sabablarga ko'ra rasmiylashtirish kuchaytirilyapti), nikohdagi oila, nikohdan tashqari oila (ayrim erkak kishilarning ikkinchi, uchinchi yuridik jihatdan norasmiy oilasi) kabidir.

Oilaning turlari

➤ Monogam oila- bola manfaatlariga yoʻnalgan oiladir. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida paydo boʻlgan hodisadir. Bu turdagi oilalar koʻproq bolani kelajakda kim boʻlishi, u egallashi lozim boʻlgan martabalar, uning istiqboli xususida qaygʻuradigan, shu bois oilaning budjeti uni taminlash, unga zarur taʼlim tarbiyani berish, gʻamxoʻrlik qilishga sarflanadi. Bu toifa oiladagi bola manfaati shu qadarki, baʼzan ona faqat bolani oʻylash, unga eʼtibor qilishni afzal bilgandan eridan ham voz kechishi holatlari ham kuzatilgan.

➤ Avtoritar oila- bola soni 1 yoki 2 ta, ota onaning cheksiz gʻamxoʻrligi, ular obroʻsi bilan parallel tashkil etiladi. Masalan: kohinlar amaldorlarning oilasi shunday. Ota ona bola nazarida eng nufuzli, aqli har narsaga yetadigan, shuning uchun bola ham xuddi otasi yoki onasi kabi yetishish motivatsiyasi kuchli boʻladi.

➤ Ambivalent detotsentrik oila- bola koʻproq ota onaning hissiy emotsional gʻamxoʻrligi taʼsirida boʻladi. Masalan: agar qiz bola boʻlsa, u faqat otasi yoki onasi, yoki ikkisinin doimiy erkalashlari ogʻushida katta boʻlib, oxir oqibat shunday holatga koʻnikib ketadi. Oilaviy munosabat faqat shunday boʻlsa kerak, degan fikr baʼzan oʻzi mustaqil oila qurganda uning yangi xonadonga koʻnikishga jiddiy xalaqit beradi.

➤ Kvaziavtonom detotsentrik oila- bola huquqlari kattalarniki bilan deyarli tenglashtiriladi, ularga kattalar bilan bir qatorda oilaviy yumushlarni bajarish erki, oʻz holicha qarorlar qabul qilish huquqlari berilgan boʻladi. Buning albatta ijobiy, ham salbiy jihatlari bor.

➤ Monogam boʻlmagan oila- toifasi chin maʼnoda nikoh munosabatlariga tayanamaydi. Bundan oilaning 3 xil koʻrinishi mavjud;

✓ ajrimlar tufayli paydo boʻlgan notoʻliq oila- XX asr oxirida koʻpayib ketgan notoʻliq oila turi Golodning maʼlumotiga koʻra, Rossiyadagi oilalar ajrimi shu qadar koʻpaydiki, har 100 ta nikohga 51 ta oila ajrimi toʻgʻri keldi. Buning sabablari: ota onalik roʻllarning bajarilmasligi, otaning bola tarbiyasidan chetlashishi, chunki ajrashgan otalar maʼlum muddat oʻtgach farzandlardan umuman yuz oʻgiradi. Oʻzbekistonda ham statistika maʼlumotga koʻra 14,5 mingdan 15 mingga oila ajrimlar qayd etildi. Ajrim boʻlgan oilalarning 70% yosh oilalar boʻlib ularda yetim boʻlib qoladi.

✓ Beva boʻlib qolish, turmush oʻrtogʻining vafoti munosabati- bunda ota yoki onaning farzandi bilan yolgʻiz qolishidir. Bunday oilalardagi maʼnaviy ajrim tufayli paydo boʻlgan notoʻliq oilanikidan farq qiladi.

✓ nikohdan tashqari oila- 90- yillarda koʻpaygan oila turi, unda asosan yolgʻiz qolgan “ayol-ona” oilani tebratadi. Bunday oilalar; Rossiya 20-21% Buyuk Britaniya Fransiyada 32-35% tashkil etgan. Rossiyada ota onalardan bittasigina boʻlgan oilalarda 1989 yilda 4.5 mln bola yashagan boʻlsa, bu koʻrsatkich 1994 yilda 5 mln ha yetdi. Oʻzbekiston sharoitida bu kabi holatlar favqulodda holatlar sifatida

qaraladi. Chunki ayrim udumlar, milliy qadriyatlarimiz farzandlarning nikohdan tashqari paydo bo'lishini qoralaydi.

Ø Alternativ oila- kam uchraydigan oila turlari bo'lib, ular ayrim jihatlari bilan boshqalardan farqlanib turadi. Bu turdagi oilalar G'arb mamlakatlariga xosdir. Bu toifadagi oilalar o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi;

~ fuqorolik nikohi- unda erkak va ayol o'z ixtiyorlari bilan rasmiy nikohni qayd etmay yashayveradi.

~ qayta nikoh- bunday nikoh turi beva qolgan shaxslarda uchraydi. Birinchi qayta nikoh XVI asrda Angliyada qayd etila boshlagan.

~ qo'sh xorinlik - bir erkak ko'pincha hufyona o'z qonuniy nikohidagi ayoldan tashqari yana boshqasi bilan shariy nikohda yashaydi. Qo'shxotinlik Osiyo va Sharq mamlakatlari aholisiga xos hisoblansada, hozirda Rossiyada ham kuzatilmoqda. Lekin bunday oila turi qonunan man etilgan. Oilaviy hayotni tizimli tarzda tasavvur etib, uning psixologik xususiyatlarini o'rganishga jazm olimlardan biri amerikalik tadqiqotchi Virjiniya Satir (1992, 2000) hisoblanadi. U oilaviy hayotni tavsiflash uchun quyidagi tushunchalarni ishlatadi;

- * Oilaning funksional xususiyatlari
- * Oila energetikasi
- * Oila tizimi chegarasi

Oilaning funksional xususiyatlari

Oilaning funksional xususiyatlari - oila a'zolar o'rtasidagi munosabatlarning sifatii farqlarini tavsiflaydi. Masalan;

- Muloqot uslublari
- Har bir oilaga xos bo'lgan tartib - qoidalar
- O'zaro muloqot jarayonida kommunikativ to'siqlarning mavjudligi

Ochiq tartib - qoidalardan tashqari, har bir oilaning yashirin qoidalari ham mavjudki, ular ham oilaviy munosabatlarning yaxshi bo'lishida katta rol o'ynaydi. Odatda bunday qoidalar muayyan mavzularning oila davrasida ko'tarilmasligi yoki ma'lum tarzda his kechinmalarning namoyon etmasligida ko'rinadi.

Oila energetikasi. Bu tushuncha o'z ichiga ko'plab jabhalarni xususan, oilaning tibbiy biologik xususiyatlardan tortib, uning psixologik mavjudligini belgilovchi omillar, shart sharoitlardan boshlab tiriklik mezonlari bo'lmish ovqatlanish, hamda bir oila a'zosining xatti harakatlarining namoyon bo'lishigacha qamrab oladi. V.Satir oilaning oila energetikasini tavsiflaydi. Ya'ni, "oilaning emotsional qozoni" tushunchasini ishlatadi. Oila a'zolari kundalik muloqot, muomala jarayonlarini u go'yoki bir qozonda qaynovchilarning birgalikda yashashda namoyon bo'ladigan hissiyotlar ko'zgasida" tasavvur etadi.

Oilaviy munosabatlar. Oila a'zolari o'rtasida sodir bo'layotgan murakkab munosabatlar ko'plab olimlar, shu jumladan, O'zbekistonlik olimlar M.Davletshin,

B.Qodirov, X.Karimov, N.Sog'inovlar tomonidan o'rganilgan. Ularda ko'proq o'zbek oilasiga xos urf-odatlar, an'analar udumlar nuqtai nazaridan oilaviy munosabatlarning etnopsixologik qirralari tadqiq etilgan. Oila institutini ijtimoiy voqelik sifatida uning qonunyatlarini tahlil etar ekanmiz, bu o'rinda biz oilaviy, o'zaro munosabatlarga xos bo'lgan munosabatining psixologik tabiatdan kelib chiqishi, va dinamikasiga e'tiborni qaratgan ko'plab tadqiqotlarda ilgari surilgan ma'lumotlarni keltirishni joiz deb bildik.

Oila muhitini barkamol avlod va komil insonni tarbiyalash muommosi turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi, Avesto, shuningdek, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, tortib hozirgi zamon pedagoglarining o'ziga xos fikr mulohazalar bildirilgani diqqatga sazovordir. Kaykovus, S.Sheroziy, Jomiy, Alisher Navoiy, A.Fitrat, A.Avloniy kabi, mutafakkirlarimizning ilmiy nazariy asarlarida oila munosabatlaridagi tarbiya tarixiylik nuqtai nazaridan bayon etilganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Avvalo bola psixologiyasi haqida so'z yurutamiz. Bola psixologiyasi onaning qornidayoq boshlanadi. Asosan bizning millatimizda bola tarbiyasiga juda katta ahamiyat beradilar. Psixologiya tarbiyada yaqqol namoyon etuvchi ruhiy hodisa hisoblanadi. Mana shuning uchun bizning elat va millat shaxslari bolalar va yoshlarning psixologiyasiga yomon ta'sir etuvchi omillardan uzoqroq yurishga harakat qiladilar. Bolalar psixologiyasi psixologiya sohasi, bolalar psixologik rivojlanishining umumiy va aloxida xususiyatlarini, turli yosh bosqichlarida bu jarayon qanday kechishi, uni harakatlantiruvchi kuchlar va qonuniyatlarni tadqiq qiladi. Shu sababli bolalar psixologiyasini ko'pincha yosh psixologiyasi deb ataydilar. Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar (ma'rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va h. k.) paydo bo'lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilmaxil faoliyatning (o'yinlar, o'qish, mehnat) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o'rganadi. Bolalar psixologiyasi umumiy psixologiyada ishlab chiqilgan tadqiqot usullaridan foydalanadi, biroq uni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari bor.

Bola shaxsi yosh xususiyatlarini o'rganishda ko'ndalang kesma va longityud deb nomlangan tadqiqotlar o'tkaziladi. Birinchi holatda birgina psixik jarayonning o'zi bir vaqtda turli yosh guruhlariga taalluqli bo'lgan bolalarda tadqiq qilinadi. Ikkinchi holat

(longityud) da esa ma'lum bir (alohida tanlab olingan) bolalarning psixik xususiyatlari ko'p yillar davomida tadqiq qilinadi. Bu esa o'z navbatida ular psixikasi rivojlanishining umumiy kechishini kuzatish imkoniyatini beradi. Bolalar psixologiyasida asosan ota-onalarga bolaga unga bo'lgan ishonch, hurmat, qo'llabquvvatlash, unga bo'lgan e'tiborlarini his qildirish, Mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan holatlar o'rgatiladi. Bola dunyoni, atrofni ota-ona ko'zlari bilan anglaydi. Ota-onaga nima yomon bo'lsa, bola shuni yomon deb hisoblaydi. Ota-ona kimni xush ko'rsa, bola uchun u inson yaxshi bo'ladi. Bu holat bolani 10-12 yoshiga qadar davom etadi. Undan keyin bola o'zi xulosa qilishga o'rganishni boshlaydi. Shunday ekan,

bolaning har bir harakati - bu ko'zgidagi sizning aksingiz. Bolalar psixologiyasi 19-asr o'rtalarida mustaqil fan sifatida ajralib chiqa boshladi. U pedagogika psixologiyasi, ped., oliy asab faoliyati fiziologiyasi bilan chambarchas bog'langandir. Uning ma'lumot va xulosalari yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti uchun, umumiy psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda Bolalar psixologiyasi masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Farzand-inson hayotining mazmuni, nasl nasabinining davomchisi, oilaning mustahkam zanjiri hamdir. Aqlli, bilimdon, mehnatsevar iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning balki butun jamiyatning eng katta boyligi hisoblanadi. Odatda, farzand oilada ham jismonan, ham ma'nan ulg'ayib shakllanadi.

Ularning voyaga yetishi davomida oiladagi ahillik muhim ro'l o'ynaydi. Ayniqsa, ularning ma'naviy tarbiyasi bilan jamiyatga xizmatini ifodalaydi. Farzandlarimiz sog'lom, e'tiqodli jismonan baquvvat qilib tarbiyalash ham ota-ona zimmasizga yuklangan. Rasululloh Sallallohu alayhi vasallam "Farzandlaringizga suvda suzishni, kamondan otishni, nayza uloqtirishni, o'tda choptirishni o'rgatinglar!"-deb, Farzandlaringizni chaqqon, sog'lom, baquvvat, ziyarak qilib tarbiyalashga ummatlarini targ'ib qildilar (Termiziy va Abu Dovid rivoyatlari). Zeroki, sog'lom psixologik tarafdin ham yetuk farzand hamma joyda ham o'z yurtiga naf keltiradi.

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqqan holda, barcha narsa bola psixologiyasiga bog'liq ekanligini anglab yetsak bo'ladi. Bola psixologiyasi, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bola psixologiyasi juda murakkabdir. Shuning uchun, men o'z bilim va ko'nikmalarimdan kelib chiqqan holda, ko'proq maktabgacha yoshdagi bolalarga etibor qaratish maqsadga muvofiq ish deb o'ylayman. Chunki, bu yoshda ya'ni, maktabgacha yosh 3-4, 5-6-7 shu yoshlarda bola juda tez fikrlaydi va psixologiyasi juda murakkab va qiziqishlari turli xil bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, rivojlanayotgan bola psixologiyasi yana oilaga borib taqaladi, chunki bola asosan 2 xil muhitni farqlaydi ya'ni, oila va o'zi borayotgan maskan ya'ni, bog'cha albatta bog'chada boshqa muhit oilada esa o'zgacha muhit shuning uchun ham bolaga oiladagi muhit bog'chaga ya'ni, ta'lim tarbiya olayotgan maskaniga, u yerdagi bolalarni psixologiyasiga ham katta ta'sir qilishi mumkin. Shu ta'lim maskani ya'ni, bog'cha ham oilaga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun, maktabgacha tarbiya yoshida e'tiborimizni farzandimizga qaratishimiz kerak. Bildirilgan barcha ma'lumot va fikrlarimizdan xulosa qilib aytganda, bolada 2 xil fikr va qarashlar hosil qilib qoyishimiz kerak emas ya'ni, oila ijobiy bog'cha salbiy degan yoki shuning aksi bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun ota-onalarimiz va biz malakali pedagoglar bilan doimiy ravishda hamkorlikda ishlashimiz zarur va shartdir. Shundagina, biz o'zimiz o'ylagan ulkan natijalarga erishamiz. Va yurtimiz uchun ravnaqi uchun yetuk va barkamol farzand bo'lib yetishib chiqamiz.

Xulosa.

